



**ONA VA BOLA HUQUQLARI: QONUNIY ASOSLAR VA
AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR**

Muxtoraliev Moxyora Habibullo qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

1-bosqich talabasi

Tel: +99897 667 17 03

Email: meiszyw@gmail.com

Annotatsiya: *Ona va bola huquqlari, jamiyatda eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, inson huquqlari va farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir insonning, xususan onaning va bolaning, o'z huquqlari bo'yicha to'liq himoya qilish, ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun qonuniy asoslar yaratish, davlatning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham ona va bola huquqlari alohida e'tiborga olinadi, ammo amaliyotda bu huquqlarni ta'minlashda bir qator muammolar mavjud. Biz bu maqolada ushbu muammolarga bir qancha alternativ yechimlar beramiz.*

Kalit so'z: *Ona va bola huquqlari, qonunchilik, amaliyot*

**MOTHER AND CHILD RIGHTS: LEGAL BASIS AND
PROBLEMS IN PRACTICE**

Abstract. *The rights of mother and child are one of the most important social institutions in society, playing a significant role in ensuring human rights and well-being. The full protection of every person, especially the mother and child, in their rights, and the creation of legal foundations for their health and development are one of the main tasks of the state. The legislation of the Republic of Uzbekistan also pays special attention to the rights of mother and child, but in practice there are a number of problems in ensuring these rights. We provide several alternative solutions to these problems in this article.*

Keywords: *Mother and child rights, legislation, practice*



ПРАВА МАТЕРИ И РЕБЕНКА: ПРАВОВАЯ ОСНОВА И
ПРОБЛЕМЫ НА ПРАКТИКЕ

Аннотация. *Права матери и ребенка являются одним из важнейших социальных институтов общества, играющим значительную роль в обеспечении прав и благополучия человека. Полная защита каждого человека, особенно матери и ребенка, в их правах, создание правовых основ для их здоровья и развития являются одной из основных задач государства. В законодательстве Республики Узбекистан также уделяется особое внимание правам матери и ребенка, однако на практике существует ряд проблем в обеспечении этих прав. В этой статье мы предлагаем несколько альтернативных решений этих проблем.*

Ключевые слова: *Права матери и ребенка, законодательство, практика*

Kirish.

Ona va bola huquqlari, jamiyatda eng muhim ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, inson huquqlari va farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir insonning, xususan onaning va bolaning, o'z huquqlari bo'yicha to'liq himoya qilish, ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun qonuniy asoslar yaratish, davlatning asosiy vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham ona va bola huquqlari alohida e'tiborga olinadi, ammo amaliyotda bu huquqlarni ta'minlashda bir qator muammolar mavjud

Jamiyatning asosini oila tashkil qiladi – “ Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi ... ”¹⁹, mukammal jamiyat tashkil qilish uchun esa avvalo mustahkam va sog'lom munosabatdagi oila zarur. Shunday ekan, oilaning asosiy bo'g'ini bo'lgan ona va bola emin-erkin rivojlanishi uchun, ularga yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishi, huquqlari himoya qilinishi kerak va bu ularning haqli ravishda amalga oshirishi kerak bo'lgan huquqidir.²⁰ Ularning huquqlarini amalga oshirish uchun bir qancha xalqaro darajadagi huquqiy asoslar mavjud. Xalqaro huquqiy me'yorlarga yuzlanadigan bo'lsak:

BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) tomonidan qabul qilingan , Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham “ Onalik va bolalik alohida

¹⁹ “ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ”16-modda 3-qism <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

²⁰ “ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ”16-modda 3-qism : “ ... va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli. ” <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>



g'amxurlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak . ” ²¹ , kabi jumalarni uchratishimiz mumkin. Bu esa yuqoridagi so'zlarimizga yaqqol misol bo'la oladi. Ya'ni , qanday holatda bo'lishidan qat'i nazar ona va bola har doim jamiyatning himoyaga muhtoj toifasi sifatida e'tirof etiladi. Ushbu moddaning e'tiborga loyiq qismi esa : “ Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak .” bunda bolalar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlik hech qanday ahamiyatga ega emasligi , ular doimo davlat himoyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunga isbot qilib , **BMT** ning 1989-yil qabul qilingan “ **Bola huquqlari to'g'risida ” gi konvensiyasining** 2-moddasidagi “ Ishtirokchi-davlatlar ushbu Konvensiyada o'z ta'sir doirasida bo'lgan har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki birorbir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar. ” ²² ushbu gaplarni keltirishimiz mumkin. Jamiyatda 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, *bola* hisoblanadi ²³ va ularning barcha huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. Ushbu konvensiya esa bolalarning hayotga , ta'lim olishga , himoyalaniishga bo'lgan huquqlarini kafolatlaydi. Albatta , bolaning sog'lom dunyoga kelishi va benuqson ulg'ayishida ularning onalarining ro'li ham ulkan. Huddi shunday , ayollar huquqlari va ularning himoyasiga qaratilgan yana bir qator xalqaro huquqiy me'yorlar va ularning asoslari mavjud : **BMTning Onalarning huquqlarini himoya qilishga doir tavsiyalari (1994) ; Ayollar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW).** Bular ayollarning, jumladan, onalarning diskriminatsiyadan himoya qilishga yana shunidek , onaning huquqlarini, ayniqsa homiladorlik, tug'ish va onalik davrida uning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan. Shu bilan birgalikda bu normalar , onaning sog'lig'ini mustahkamlashga , ona va bola o'rtasidagi aloqalar mustahkamligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Huddi shunday , bu kabi ona va bolaning yaxshi rivojlanishiga , ularning tinchligiga havf soluvchi tahdidlarga qaratilgan bir qator huquqiy hujjat va qonunlarni milliy qonunchiligimizda ham uchratishimiz mumkin. Jumladan :

²¹ “ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ” 25-modda 2-qism <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>

²² “ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya ” 2-modda <https://www.tergov.uz/uz/chilids/konventsija-o-pravah-rebenka?ysclid=m5673c1hf037786795>

²³ “ Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya ” 1-modda <https://www.tergov.uz/uz/chilids/konventsija-o-pravah-rebenka?ysclid=m5673c1hf037786795>



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 76-moddasida ²⁴: “ Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. ” ; 78-moddasida ham “ Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. ” kabi jummalarni uchratishimiz mumkin. Bu o'z navbatida, davlatimizda oilaning jamiyatdagi o'rnining tan olinishi va uning davlat tomonidan yetarlicha himoya qilinishining isbotidir. Yana , **BMT ning “ Bola huquqlari to'g'risida ” gi konvensiyasining** 1992-yilda ratifikatsiya qilinganligi va shu asosida 2008-yil “ **Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risi ”** ²⁵ dagi qonunning qabul qilinishi ham , bolalarning sog'liqni saqlash, ta'lim olish, mehnat qilishdan himoyalani sh kabi huquqlarini belgilab beradi. Bundan ko'rishimiz mumkinki , biz yuqorida so'z yuritgan xalqaro huquqiy asoslarning deyarli barchasi O'zbekiston Respublikasi tomonidan mutlaq tan olinadi , ular davlat tomonidan kafolatlanadi va yetarlicha muhofaza qilinadi.

Huquqiy me'yorlar, ya'ni onalar va bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda ularning to'liq amalga oshirilishi bilan bog'liq jiddiy muammolar mavjud. O'zbekistondagi chekka va qishloq hududlarida onalar va bolalar uchun sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa muhim xizmatlar bilan bog'liq imkoniyatlar cheklangan. Masalan, shahar markazlaridan uzoqlashgan hududlarda sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlarga kirishish qiyinlashadi, tibbiy xodimlar yetishmasligi yoki tibbiy muassasalar sonining ozligi kabi omillar sababli, onalar va bolalar kerakli yordamni olishda qiynaladi. Bundan tashqari, chekka hududlardagi maktablar va ta'lim muassasalarining yomon holati, o'quv materiallari va pedagogik xodimlarning yetishmasligi ham amaliyotdagi muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Bu holatlar onalar va bolalarning ta'lim olish huquqini to'liq amalga oshirishni cheklaydi.

Imtiyozlarning buzilishi va diskriminatsiya:

Qonunchilikda belgilangan imtiyozlar, jumladan, ayollar uchun maxsus mehnat shartlari, ish vaqti, homiladorlik va bolalik davrida dam olish huquqi kabi normalar mavjud. Ammo, ish joylarida bu imtiyozlar tez-tez buziladi. Misol uchun, ba'zi ish beruvchilar ayollarga homiladorlik va farzandlik ta'tili, tug'ruqdan keyingi ta'til kabi qonuniy huquqlarni taqdim etmasliklari yoki ayni paytda ayollarga nisbatan ishlash sharoitlarini noto'g'ri tashkil etishlari mumkin. Ba'zi holatlarda, ayollar uchun ishlash shartlari erkaklarga nisbatan yomonroq bo'lishi yoki ular jinsiy diskriminatsiyaga duch kelishlari mumkin. Yana shuningdek , ish joylarida

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

²⁵ O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi qonuni <https://lex.uz/docs/-1297315>





ayollarning mehnat huquqlarining buzilishi va ular uchun teng ish haqi yoki ish sharoitlari ta'minlanmasligi ham amaliyotdagi muammolar sirasiga kiradi. Bunday holatlar ayollarni jamiyatda pastki o'rinlarga tushirishi mumkin, bu esa ularning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yomonlashtiradi.

Tashkiliy va ijtimoiy yordamning yetishmasligi:

Amaliyotda, onalar va bolalar uchun ta'minlanishi kerak bo'lgan ijtimoiy yordam va resurslar ko'pincha yetarli emas. O'zbekistonning ayrim hududlarida, xususan, qishloq joylarda, onalar va bolalar uchun rehabilitatsiya, psixologik yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari cheklangan. Shu bilan birga, ba'zan davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy yordamlar, masalan, bolalarga beriladigan nafaqa, o'z vaqtida taqdim etilmasligi yoki unda noaniqliklar bo'lishi mumkin. Bu, o'z navbatida, onalar va bolalar uchun yashash sharoitlarini yanada og'irlashtiradi.

Ayrim oilalarda onalar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari mavjud bo'lib, ular ko'pincha yashirin qoladi. Bu muammo ijtimoiy ongda onalar va bolalar huquqlariga yetarlicha e'tibor berilmasligi, huquqiy madaniyatning pastligi, va jamiyatdagi ko'plab stereotiplar tufayli davom etmoqda. Ayniqsa, oiladagi zo'ravonlik va kamsitish holatlari, qonuniy asoslarning mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda hal etilmagan muammolar sifatida qolmoqda. Birinchidan, oiladagi zo'ravonlik ko'pincha yashirin qoladi. Onalar va bolalar ko'pincha oilaviy maxfiylikni saqlashga intilishadi yoki jamiyatdagi stigma tufayli bu holatlarni oshkor etishdan qo'rqishadi. Bu holat, albatta, huquqiy muassasalar uchun aniq va samarali choralar ko'rishda katta to'siq bo'ladi. Ikkinchidan, ijtimoiy ongda onalar va bolalar huquqlariga e'tibor yetarlicha berilmayapti. Oiladagi zo'ravonlikni noqonuniy deb bilish o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarshi keladi, bu esa ham jamiyatning, ham tegishli muassasalar tomonidan ko'riladigan reaksiyaning sustlashishiga olib keladi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyatning pastligi ham muhim omildir. Ko'plab fuqarolar, ayniqsa qishloq joylarida, o'z huquqlarini bilmaydi va huquqiy yordam so'rashda ikkilanishadi. Zo'ravonlik holatlari yuzaga kelganda, masalan, politsiyaga murojaat qilish yoki sudga murojaat qilish kabi harakatlar ko'pincha amalga oshirilmaydi.

Xulosa: Onalar va bolalarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va ularni himoya qilishda huquqiy asoslar mavjud bo'lsa-da, amaliyotdagi muammolar, jumladan, ijtimoiy ongda kamchiliklar, huquqiy madaniyatning pastligi va oiladagi zo'ravonlikning yashirinligi, samarali hal etilayotgan masala emas. Shuning uchun, bu muammolarni bartaraf etish uchun ijtimoiy, huquqiy va psixologik mexanizmlar birlashtirilgan holda kompleks choralar ko'rish zarur. Onalar va bolalar huquqlariga hurmat va e'tibor jamiyatda kengroq tarqatilishi, huquqiy madaniyatning oshishi va





zo'ravonlikka qarshi kurashishda samarali mexanizmlarning tatbiqi zarur. Shunday qilib, huquqiy me'yorlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda bu me'yorlarning to'liq va samarali bajarilmasligi, shuningdek, diskriminatsiya, imtiyozlarning buzilishi va ijtimoiy xizmatlarning yetishmasligi kabi muammolar tizimli ravishda hal etilishi lozim. Bu muammolarni bartaraf etish uchun davlat va jamiyat tomonidan doimiy ravishda islohotlar o'tkazilishi, huquqiy nazoratni kuchaytirish, va har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilishni ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women (CEDAW, 1979)
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)
3. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989)
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023)
5. Bola huquqlarining kafolatlari to'grisida qonun(2007)